

“XOR BO‘LIB KUYLASH – O‘QUVCHILARDA MUSIQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI”

Qarshieva Diyora Abduxakim qizi

Sirdaryo viloyati, Guliston shahar

Guliston ixtisoslashtirilgan san’at maktabi

“Xor dirijyorligi” yo‘nalishi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xor bo‘lib kuylash orqali o‘quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirishning omillari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: xor, xor ijrochiligi, san’at maktabi, “Xor sinfi” darsi, “xor bo‘lib kuylash” faoliyat turi.

Bolalar va kattalar qo‘shiq aytishni, konsertlarda chiqishni havas qilishadi, o‘z qobiliyatlarini xalq hukmiga havola etishni xohlashadi. Musiqa yosh avlodni fikrini uyg‘otish, estetik tuyg‘ularni tarbiyalash, ularni go‘zallik dunyosiga olib kirishda yordam beradi. Xorda ashula aytish xonandalarga, ayniqsa bolalarga ommaviy musiqiy ta’lim berish uchun jiddiy asos bo‘la oladi. Bizning ozod va obod diyorumizda har bir bola, u keyinchalik qaysi kasbni tanlashidan qat’iy nazar, musiqa san’atini o‘rganishi va undan atroflicha boxabar bo‘lishi zarur. Musiqa ohanglari hayotimizni nafaqat bezaydi, ayni paytda unga bayramona kayfiyat baxsh etadi. SHunday musiqa asarlari ham borki, hayotni yanada tantanavor, xushchanlikka, go‘zallashtirishga, boyitishga va yaxshilashga xizmat qiladi.

Musiqali badiiy obrazlar orqali jonli ijodiy muloqot bilan ashula xor ijrochiligining o‘rni alohidadir. O‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda boshqa bironta dars shakli ashula-xor ijrochiligining oldiga tusha olmaydi. Mana shu o‘zining badiiy obrazli tarbiyaviy kuchi bilan ashula-xor ta’limi maktabning umumtarbiyaviy ishida o‘z mavqeiga molik o‘rinda turish kerak. Bu erda shuni ta’kidlash kerakki,

ashula –xor ijrochiligining barkamolligi o‘quvchilarning umumiy musiqa madaniyatiga, badiiy didiga, musiqa eshitish ko‘nikmalariga va musiqiy savodxonligiga bog‘liq bo‘ladi.

Xor bo‘lib kuylashda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan maqsadlar, musiqa tarbiyasining bosh mezoni – o‘quvchilarning ma’naviy boyligining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqaviy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadlarni quyidagicha amalga oshirish belgilanadi:

1. Jamoa bo‘lib kuylash faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o‘quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2. Vokal-xor malakalarini rivojlantirib, yakka jamoa bo‘lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o‘rgatish.

3. Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, tempi, mualliflari haqida fikr yuritishga o‘rgatish.

4. Musiqa savodidan, oddiy musiqa terminlarini va atamalarini mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir xor asarida kuylab borish.

Darsda xor bo‘lib kuylash mazmunini hayot bilan bog‘lab olib borish zarur. Qo‘shiq o‘rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalar kuylab ovozlarni sozlashi bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Bunda ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil etishda bolalarni aktiv qatnashtirish maqsadga muvofiqdir. Har bir xalqning o‘z milliy musiqa san’ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarda aniq tushuncha hosil qilishi lozim.

Musiqa savodidan o‘lchovlar, ladlar, ton va yarim ton, alteratsiya belgilari, dinamik belgilari, intervallar, reprizalar bilan tanishtirib xor asarlarini tahlil qilish yaxshi natija beradi. Yuqori sinflarda o‘quvchilarga qo‘shiqlarni ikki ovozlik qilib o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu paytda, mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davridan oldin o‘g‘il va qiz bolalar ovozi o‘rtasidagi farq uncha sezilmaydi. Mutatsiya paytida qo‘shiq o‘rgatish o‘qituvchidan katta mas’uliyatni talab etadi. Xor asarlari bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ularning ovozlarni asrab avaylash ishlariga yordam berishi lozim. Darsning asosiy qismini

ashula aytishga sarf etib, ovozlarni charchatmaslik kerak. O‘quvchilarni ikki ovozga ajratib qo‘shiqlarni ikki ovozlik qilib, ularning ovozlari moslash ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash faoliyatlari, asarlarni tahlil qilishda mavzular asosida mantiqan bog‘lanadi.

Xorda yaxshi sozga, sof intonatsiyaga va ansamblga erishishdan qat‘iy nazar, unda nyanslar, dinamika va jumllash kabi ijro vositalari etishmasa, uning ijrosi jonli, emotsional, qiziqarli bo‘lmaydi, xorda olib boriladigan barcha ishlar badiiy-ifodali ijro bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi zarur.

Ijodiy muhit o‘qituvchi va bolalar xor jamoasining hamkorligida yaratiladi. Ijodiy ishni, intizomni yo‘lga qo‘yishda, oldinga qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchining mustahkam irodasi va talabchanligi muhim rol o‘ynaydi. Bolalar kuylash sifati hamda o‘zlarining mahoratlariga bog‘liq bo‘lsa, o‘qituvchi ko‘plab bir-biridan farq qiluvchi ovozlarni ishlaydi. U o‘z oldida turgan xor ijrochilarini bir jamoada to‘plab, ularni shunday birlashtirishi kerakki, bu bolalar xor jamoasi uning boshqaruvida xuddi yaxshi sozlangan musiqa cholg‘usidek yangrashi lozim. U o‘quvchilarning xarakterlarini bilishi, ular bilan munosabatga kirishganda individual yo‘l tutishi, oldinga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda hammaga bir xil talab qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Xor bo‘lib kuylash o‘quvchilarning ko‘rsatadigan faollar turlari ichida qo‘shiq o‘rganish va uni me‘yoriga etkazib kuylash ularga alohida emotsional ko‘tarinkilik va zavq bag‘ishlaydi. Zero, D.B.Kabalevskiyning ta‘biriga ko‘ra «Har bir sinf - bu xor!, - bu ideal» hisoblanadi. Chunki, xorda kuylash jarayonida barcha o‘quvchilar o‘z ovozi, kuylash qobiliyatini, hayotga bo‘lgan o‘z munosabatini oshkora namoyon qila oladi.

Xor san‘ati o‘z tabiatiga ko‘ra sanat darsidir. Uni rang-barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o‘qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab etadi. “Bolalarni sanatga o‘rgatish nihoyatda murakkab,-deb takidlaydi taniqli kompozitor D.B.Kabalevskiy, - hamma murakkablik shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqirmay turib chinakam sanatga o‘rgatish mutlaqo mumkin emas”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev Sh. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” .- T.: O‘zbekiston 2017.
2. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” T., 2000y.
3. Mirzaev Q. “Vokal-xor jamoalari bilan ishlash metodikasi” T., 2010 y.
4. Mirzaev Q.T. “Xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti”. O‘quv-metodik qo‘llanma. T., A.Qodiriy nomidagi ToshDMI bosmaxonasi. 2008
5. Sharipova G.M. “ Musiqa o‘qitish metodikasi” metodik qo‘llanma
6. Sharafieva N.S. “Xor sinfi”. Musiqa nashriyoti. T., 2005